

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMINI OSHIRISHNING SAMARALI STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Nematova Sitora Xurshidovna

Buxoro davlat universiteti
“Iqtisodiyot” mutaxassisligi
1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimini oshirishning samarali strategik yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Global investitsiya oqimlarining transformatsiyasi, texnologik modernizatsiya jarayonlari hamda milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyasi asosida TTXIning jalb qilishning institutsional, tarmoq va hududiy mexanizmlari yoritilgan. Statistik ma’lumotlar va amaldagi investitsiya dasturlari asosida integratsiyalashgan strategik model taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, sanoat transformatsiyasi, global qiymat zanjiri, eksport diversifikatsiyasi, erkin iqtisodiy zonalar, ESG, texnologiya transferi.

Аннотация

В статье проведён научный анализ эффективных стратегических направлений увеличения притока прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в экономику Узбекистана. На основе трансформации глобальных инвестиционных потоков, процессов технологической модернизации и национальной стратегии экономического развития раскрыты институциональные, отраслевые и региональные механизмы привлечения ПИИ. На базе статистических данных и действующих инвестиционных программ предложена интегрированная стратегическая модель.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, промышленная трансформация, глобальная цепочка стоимости, диверсификация экспорта, свободные экономические зоны, ESG, трансфер технологий.

Abstract

This article provides a scientific analysis of effective strategic directions for increasing the inflow of foreign direct investment (FDI) into the economy of Uzbekistan. Based on the transformation of global investment flows, processes of technological modernization, and the national economic development strategy, the institutional, sectoral, and regional mechanisms for attracting FDI are examined. An integrated strategic model is proposed on the basis of statistical data and current investment programs.

Keywords: foreign direct investment, investment climate, industrial transformation, global value chain, export diversification, free economic zones, ESG, technology transfer.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kapital oqimlarining qayta taqsimlanishi, global qiymat zanjirlarining (Global Value Chains - GVC) transformatsiyasi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining yangi hududlarga ko'chishi investitsion geografiyaning tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. "Nearshoring" va "friendshoring" strategiyalarining kengayishi natijasida transmilliy kompaniyalar ishlab chiqarishni siyosiy barqarorlik, qulay logistika infratuzilmasi va raqobatbardosh mehnat resurslariga ega davlatlarga yo'naltirmoqda [1]. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) global investitsiya oqimlarining yarmidan ortig'ini tashkil etmoqda [1.1]. Bu jarayon sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida ham 2021-2025-yillar davomida investitsiya muhiti tubdan isloh qilindi va investitsion faollik barqaror o'sish dinamikasini namoyon etdi [2]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida belgilab, "Har bir jalb etilayotgan investitsiya mamlakatimiz iqtisodiyotiga yangi texnologiya, zamonaviy boshqaruv va yuqori qo'shilgan qiymat olib kirishi kerak", deb ta'kidlagan [3]. Ushbu yondashuv investitsiya siyosatini miqdoriy kengaytirishdan sifat jihatdan modernizatsiya qilishga yo'naltirilganini ko'rsatadi.

Prezident nutqlarida qayd etilganidek, 2026-yilda 50 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vazifasi belgilangan. Shu bilan birga, kelgusi besh yilda 180 milliard dollar investitsiya hisobiga 1 million yuqori daromadli ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Prezidentimizning "Biz investitsiyalarni jalb qilishda nafaqat hajm, balki sifat mezonlariga ham qat'iy amal qilamiz" [4] degan fikri TTXI oqimining texnologik sig'imi, eksportga yo'naltirilganligi va mahalliy ishlab chiqarish bilan kooperatsiyasini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

2025-yilda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 43,1 mlrd AQSh dollariga yetdi, shundan 38,2 mlrd dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keldi [5]. Bu ko'rsatkichlar investitsiya muhitining yaxshilanganini hamda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi nazariy va amaliy asoslar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish masalasi strategik ahamiyatga ega bo'lib, kompleks yondashuvni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) uzoq vaqtdan buyon iqtisodiy o'sish, strukturaviy transformatsiya hamda texnologik modernizatsiyaning muhim drayveri sifatida e'tirof etib kelinadi. TTXI nazariyasining klassik asoslari S. Hymer tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u TTXIni portfel investitsiyadan farqlab, nazorat va firma xos ustunliklarini asosiy omil sifatida ta'kidlagan [6]. Hymerga ko'ra, transmilliy korporatsiyalar (TMK) raqobat ustunliklarini ichkilashtirish va bozor nomukammalliklarini kamaytirish maqsadida TTXI amalga oshiradi. Keyinchalik ushbu nazariy asos J. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan ekletik paradigma (OLI

modeli) orqali kengaytirildi [7]. Ushbu modelga ko'ra, TTXI qarorlari mulkchilik (Ownership - O), joylashuv (Location - L) va ichkilashtirish (Internalization - I) ustunliklari kombinatsiyasi asosida shakllanadi. Mazkur yondashuv doirasida qabul qiluvchi mamlakatning institutsional barqarorligi, bozor hajmi, infratuzilma rivoji va mehnat unumdorligi kabi omillar TTXI oqimining muhim joylashuv determinantlari hisoblanadi.

So'nggi empirik adabiyotlarda TTXI determinantlari institutsional iqtisodiyot va rivojlanish nazariyalari bilan yanada boyitildi. D. North institutsional sifat - ya'ni qonun ustuvorligi, mulk huquqlarining himoyasi va boshqaruv samaradorligi - tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, investitsiya xavfini pasaytirishini va natijada kapital oqimini rag'batlantirishini ta'kidlaydi [8]. TTXI va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab transmilliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Borensztein, De Gregorio va Lee TTXI iqtisodiy o'sishga asosan texnologik spillover orqali ta'sir qilishini, biroq bu inson kapitali yetarli darajada rivojlangan sharoitda samarali bo'lishini aniqlagan [9].

So'nggi yillarda global qiymat zanjirlari (GVC) yondashuvi TTXI tahlilida yangi bosqichni boshlab berdi. Gereffi [10] hamda OECD [11] tadqiqotlariga ko'ra, GVCga integratsiya eksportni diversifikatsiyalash, bilim diffuziyasi va sanoat modernizatsiyasini tezlashtiradi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda barqarorlik va ESG mezonlari ham TTXI tahliliga keng jalb etilmoqda. IMF [12] va OECD hisobotlarida yashil TTXI global iqlim majburiyatlari va SDGlar bilan uyg'unlashib borayotgani qayd etiladi.

O'tish davridagi va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar kontekstida UNCTAD sanoat siyosati muvofiqligi, infratuzilma tayyorgarligi va raqamli transformatsiya darajasi TTXI oqimining tarkibi hamda sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [1], [3].

Shu sababli mavjud adabiyotlar O'zbekiston uchun nazariy va empirik jihatdan integratsiyalashgan strategik model zarurligini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda 2021-2025-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hamda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi statistik tahlil asosida o'rganildi. Tahlil uchun Davlat statistika qo'mitasi va rasmiy investitsiya hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqotda dinamik qator tahlili, qiyosiy tahlil hamda o'sish sur'atlarini hisoblash usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalar, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, kapital shakllanish jarayonining asosiy manbalaridan biri sifatida iqtisodiy tizimning tarkibiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish vositalarini yangilash, mavjud quvvatlarni kengaytirish, yangi texnologik liniyalarni joriy etish hamda infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning moddiy bazasini mustahkamlaydi. Iqtisodiy nazariyada investitsiyalar yalpi talabning tarkibiy elementi sifatida qisqa muddatli o'sishga ta'sir ko'rsatsa, kapital zaxirasining ortishi orqali uzoq muddatli taklif salohiyatini ham kengaytiradi. Xorijiy investitsiyalar esa

ichki jamg'armalar yetarli bo'lmagan sharoitda kapital taqchilligini qoplaydi hamda texnologik yangilanish jarayonini tezlashtiradi.

2021-2025-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'ldi, biroq umumiy tendensiya o'sish bilan xarakterlanadi. 2021-yilda 11,1 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan investitsiyalar hajmi 2022-yilda 8,9 mlrd dollargacha kamaydi, ya'ni 19,8 foizga qisqardi. Ushbu pasayish global investitsiya oqimlarining qisqarishi, xalqaro moliyaviy sharoitlarning murakkablashuvi va logistika zanjirlaridagi uzilishlar bilan bog'liq tashqi omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Biroq 2023-yildan boshlab tiklanish jarayoni kuzatildi. Investitsiyalar hajmi 14,8 mlrd dollarga yetib, 66,3 foizga oshdi. 2024-yilda 26,4 mlrd dollarni tashkil etib, 78,4 foizga ko'paydi. 2025-yilda esa 43,1 mlrd dollarga yetib, 63,3 foizga o'sdi. Natijada, 2021-2025-yillar oralig'ida xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb 3,9 barobar oshdi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa taxminan 40 foizni tashkil etdi.

Quyidagi jadvalda xorijiy investitsiyalar dinamikasi tizimlashtirilgan:

1-jadval.

2021-2025-yillarda xorijiy investitsiyalar hajmi[5]

Yil	Hajmi (mlrd AQSh dollari)	Yillik o'zgarish
2021	11,1	-
2022	8,9	19,8 foizga kamaydi
2023	14,8	66,3 foizga oshdi
2024	26,4	78,4 foizga oshdi
2025	43,1	63,3 foizga oshdi

Xorijiy investitsiyalar hajmining o'sishi investitsiya muhitini yaxshilash, tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish bilan bog'liq. Energetika, transport-logistika, qurilish materiallari sanoati, kimyo va metallurgiya sohalarida amalga oshirilgan yirik loyihalar investitsion faollikni rag'batlantirdi. Shuningdek, hududiy sanoat zonalarining kengayishi ishlab chiqarishning hududiy diversifikatsiyasiga xizmat qildi.

2-jadval.

2021-2025-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar[5]

Yil	Hajmi (trln so'm)	Yillik o'zgarish
2021	99,8	-
2022	118,7	18,9 foizga oshdi
2023	154,2	29,9 foizga oshdi
2024	243,6	57,9 foizga oshdi
2025	591,1	142,6 foizga oshdi

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'rsatkichlari ham tezlashuvchi o'sish sur'atlarini namoyon etdi. 2021-yilda 99,8 trln so'mni tashkil etgan investitsiyalar hajmi 2022-yilda 118,7 trln so'mga yetib, 18,9 foizga oshdi. 2023-yilda 154,2 trln so'mni tashkil etib, 29,9 foizga ko'paydi. 2024-yilda 243,6 trln so'mga yetib, 57,9 foizga oshdi. 2025-yilda esa 591,1 trln so'mni tashkil etib, 142,6 foizga o'sdi.

2021-2024-yillar oralig'ida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2,4 barobar oshgan bo'lsa, 2025-yilda 2021-yilga nisbatan 5,9 barobar ko'paygan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning sezilarli darajada oshishi ishlab chiqarish infratuzilmasining kengayishi, yangi sanoat obyektlarining ishga tushirilishi va mavjud quvvatlarning modernizatsiya qilinishi bilan bog'liq. Energetika sohasida yangi quvvatlarning joriy etilishi ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. Transport va logistika infratuzilmasining kengayishi esa ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaxshiladi. Bu omillar real sektorning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga zamin yaratdi.

Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan kapital zaxirasining ortishi ishlab chiqarish funksiyasining kengayishiga olib keladi. Solou o'sish modeliga muvofiq, kapital va mehnat omillarining kombinatsiyasi ishlab chiqarish hajmini belgilaydi. Kapitalning ortishi qisqa va o'rta muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi hamda YAIMning potensial darajasini kengaytiradi. Shu bilan birga, uzoq muddatli o'sish umumiy omillar unumdorligining oshishiga bog'liq bo'lib, investitsiyalarning texnologik yo'nalishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotning global qiymat zanjirlariga integratsiya darajasini oshiradi. Texnologik transfer jarayonlari ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytiradi va innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi. Investitsiyalar yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarga yo'naltirilganda eksport hajmining kengayishiga va sanoat diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. Bu esa tashqi savdo balansining barqarorlashuviga va iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2021-2025-yillarda investitsiyalar hajmining 3,9 barobar, asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,9 barobar oshishi kapital shakllanish jarayonining kengayganini ko'rsatadi. Kapital qo'yilmalarining tarkibiy va hajmiy o'sishi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, infratuzilmaning takomillashishi va sanoatning modernizatsiyasi bilan uyg'un holda amalga oshdi. Investitsiyalar dinamikasi iqtisodiyotda ishlab chiqarish salohiyatining ortganini va tarkibiy yangilanish jarayonining jadallashganini aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimini oshirishning samarali strategik yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratildi. O'rganilgan 2021-2025-yillar statistik ma'lumotlari investitsion faollikning sezilarli darajada oshganini, kapital jamg'arish jarayoni intensiv bosqichga o'tganini hamda investitsiya siyosati tizimli xarakter kasb etganini ko'rsatdi. Xorijiy investitsiyalar hajmining qariyb 3,9 barobar, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning esa 5,9 barobar oshishi mamlakatda olib borilayotgan institutsional islohotlar va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini tasdiqlaydi.

Nazariy jihatdan, tadqiqot natijalari Hymerning nazorat konsepsiyasi [6],[1], Dunningning OLI modeli [7], [1], institutsional iqtisodiyot yondashuvi hamda endogen o'sish nazariyasi bilan uyg'unlashadi. Kapital oqimlarining oshishi iqtisodiy

o'sishning taklif tomonini mustahkamlasa-da, investitsiyalarning uzoq muddatli samaradorligi ularning texnologik sig'imi, eksportga yo'naltirilganligi va mahalliy ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuv darajasiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Shu bois TTXI oqimini oshirish siyosati miqdoriy kengayishdan sifat jihatdan modernizatsiya qilish bosqichiga o'tishi zarur.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida investitsiya oqimini barqaror va samarali oshirish quyidagi strategik yo'nalishlar asosida amalga oshirilishi lozim:

- institutsional barqarorlik va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash;
- yuqori qo'shilgan qiymatli va texnologik intensiv tarmoqlarga ustuvorlik berish;
- global qiymat zanjirlariga integratsiyani chuqurlashtirish;
- hududiy klasterlash va erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish;
- ESG tamoyillariga asoslangan yashil va raqamli transformatsiyani jadallashtirish;
- investitsiyalar samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish.

Investitsiyalar hajmining keskin oshishi kapital unumdorligi, tashqi moliyaviy barqarorlik va fiskal yuklama bilan bog'liq xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun investitsiya siyosati resurslarning optimal taqsimlanishini ta'minlash va yuqori iqtisodiy qaytimni kafolatlashga yo'naltirilishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotiga TTXI oqimini oshirishning samarali strategiyasi institutsional islohotlar, sanoat modernizatsiyasi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va barqaror rivojlanish tamoyillarini o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirilgan taqdirdagina mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlay oladi. Mazkur tadqiqot investitsiya siyosatini sifat jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Transformation. - New York and Geneva: United Nations, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2021-2025 yillar investitsiya statistikasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. - Toshkent, 2025.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023-2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqidan iqtibos, Investitsiya forumidagi chiqish. - <https://president.uzhttps://en/lists/view/>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (Statistika agentligi) ma'lumotlari, 2025-yil yakunlari bo'yicha investitsiya ko'rsatkichlari. - <https://stat.uz>
6. Hymer S. The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment. - Cambridge: MIT Press, 1960.
7. Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. - Wokingham: Addison-Wesley, 1993.
8. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. - Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

9. Borensztein E., De Gregorio J., Lee J.W. How does foreign direct investment affect economic growth? // Journal of International Economics. - 1998. - Vol. 45. - P. 115-135.
10. Gereffi G. Global value chains and development // Cambridge University Press. - 2018.
11. OECD. Global Value Chains and Trade Policy. - Paris: OECD Publishing, 2021.
12. IMF. World Economic Outlook 2023. - Washington, DC: IMF, 2023.
13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**